

**UMUMTA'LIM MAKTABI O'QUVCHILARINI MEHNAT BOZORIGA
KIRIB KELAYOTGAN ZAMONAVIY KASBLARGA YO'NALТИРИШНИНГ
PSIXOLOGIK ASOSLARI**

*Do'lanova Mavjuda Jo'raqulovna
 Buxoro viloyati Qorako'l tumani
 22-umumta'lim maktabi psixologi,
 Ruzmatova Dilso'z Mamurdjonovna
 7- umumta'lim maktabi psixologi*

Annotatsiya: Ushbu maqolada umumtalim maktablarida o'quvchilarni zamonaviy kasblarga yo'naltirish ishlarini tashkil qilish, o'quvchilarda zamonaviy kasblar haqida ko'nikmalarini hosil qilish, ushbu ishlarni tashkil qilishning ilmiy uslubiy ahamiyatlari haqida yangicha qarashlar berilgan bo'lib barcha pedagog va foydalanuvchilar uchun muhim jihatlar yoritib berilgan

Kalit so'z: zamonaviy kasblar, mehnat bozori, kasb-hunarga yo'llash, (diagnostik), zamonaviy (rivojlantiruvchi), IT, suniy intelekt, qizish, qobilyat.

**ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ОРИЕНТАЦИИ
ОБЩЕОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ УЧАЩИХСЯ НА СОВРЕМЕННЫЕ
ПРОФЕССИИ, ВЫХОДЯЩИЕ НА РЫНОК ТРУДА**

*Доланова Маджуда Джуракуловна
 Каракульский район Бухарской области.
 Психолог средней школы № 22
 Рузматова Дилсоз Мамурджоновна
 Каракульский район Бухарской области.
 Психолог в 7 классе*

Аннотация: В статье изложены новые взгляды на организацию работы по ориентации учащихся на современные профессии в общеобразовательных школах, формирование у учащихся навыков современных профессий, научно-методическое значение организации этой работы, выделены важные аспекты для всех педагогов и пользователей.

Ключевые слова: современные профессии, рынок труда, профориентация, (диагностическая), современная (развивающая), ИТ, искусственный интеллект, отопление, способность.

**PSYCHOLOGICAL BASIS OF DIRECTING COMPREHENSIVE SCHOOL
STUDENTS TO MODERN PROFESSIONS ENTERING THE LABOR
MARKET**

Dulanova Majduda Joraqulovna

Karakul district, Bukhara region

Psychologist of secondary school No. 22

Ruzmatova Dilsoz Mamurdjonovna

Psychologist of secondary school No. 7

Annotation: This article presents new views on the organization of work on directing students to modern professions in secondary schools, the formation of students' skills about modern professions, and the scientific and methodological significance of organizing this work, highlighting important aspects for all educators and users

Keywords: modern professions, labor market, vocational guidance, (diagnostic), modern (developmental), IT, artificial intelligence, heating, ability.

Har qanday jamiyat boyligining manbayi, insoniyat tomonidan moddiy va ma'naviy boylik yaratishning asosiy omili mehnatdir. Jamiyatning ijtimoiy shakli qanday bo'lishidan qat'i nazar, mehnat moddiy va nomoddiy ne'matlar ishlab chiqarishda zarur faoliyat bo'lib qoladi. Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev 1 ta'kidlaganidek, iqtisodiy islohotlar va ijtimoiy o'zgarishlarning samarasi, birinchi navbatda, aholining moddiy ahvoli va farovonligiga, uning hayot darajasi hamda sifatiga qay darajada ta'sir ko'rsatayotgani bilan o'lchanadi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 22022-yil 20-dekabrdagi Oliy Majlisga va O'zbekiston xalqiga Murojaatnomasida ta'kidlaganidek, odamlarimizni kasb-hunarli qilish, ularning biznesiga keng yo'l ochish, haqiqiy mulkdor bo'lib, daromad topishi uchun zarur sharoitlarni yaratish davlatning asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi.

Kasb tanlash-bu inson hayotida muhim ahamiyat kasb etadigan tanlovdir. Bu tanlov uning butun bir kelajak hayotini belgilab beradi desak mubolag'a bo'lmaydi. Tanlagen kasb qanchalik to'g'ri bo'lsa bu insonga ham moddiy ham ma'naviy jihatdan foyda keltiradi. Kaykovus o'zining Qobusnama asarida "Bas, agar aqling bo'lsa hunar o'rgang'il, nedinkim hunarsiz aql-bosh siz tan, suratsiz bandadekdir..." deya ta'kidlab o'tgan. Jamiyatda yashayotgan har bir insonga qulaylik yaratish, uning ehtiyojlarini qondirish, yaxshi yashashi uchun sharoitlar yaratish bor kasblarni takomillashishiga va yangi kasblarni paydo bo'lishiga olib kelad. Binobarin, XXI-asrda ilm-fan yutuqlari taraqqiyotning bosh omili bo'lib qoladi. Shuning uchun ham XXI asr ilm-fan va taraqqiyot asri deb yuritiladi.

Bugungi kunda hayotimizga izchillik bilan zamonaviy kasblar tushunchasi kirib kelmoqda. Zamonaviy kasb deganda ko‘proq internet tarmoqlari bilan bog‘liq yoki masofadan turib boshqarish imkonini beradigan axborot texnalogiyalari kasblari, marketing, ijtimoiy tarmoqlarda marketing, robotatexnika mutaxassislari, dasturiy ta’minot, 3D, suniy intelekt yo‘nalishlarini tushunishimiz va bu misollar qatoriga ko‘plab kasblarni qo‘sishimiz mumkin. Mehnat bozorida ma’lum bir kasbning dolzarbligiga turli omillar ta’sir qiladi; doimiy rivojlanish, yangi texnikalarning yaratilishi, avtomatlashtirilgan tizimlarning kirib kelishi va hokazolar. Xo‘s, bunday jadal rivojlanib ketayotgan bir davrda kelajak uchun eng yaxshi kasb qanday kasb ekan degan savol o‘quvchilarni o‘ylantirishi turgan gap. Eng yaxshi ish o‘rinlari haqida o‘ylaganda eng avvalo kasblarning jamiyatda tutgan o‘rni qanday bo‘lishidan qa’tiy nazar inson o‘zining qiziqish va qobilyatlarini inobatga olishi lozim. Bolaning iqtidori, ulardagi ishtiyoq nimalarga qodir ekanligiga hayotdan kelib chiqib guvohi bo‘lishimiz mumkin. Ular bolaligidanoq o‘z maqsadlarini aniq bilishlari kerak. Bundan tashqari zamon bilan hamnafas holda yangiliklarni kuzatib o‘z ustida tinimsiz ishlashlari lozim. Hozirgi kunda o‘z ishida samarali natijaga erishish uchun nafaqat o‘quvchi-yoshlar balki har bir shaxs IT sohasini mukammal o‘rganishi shartligi bugunning asosiy talabidir. Farzandlarimizni mustaqil fikrli, zamonaviy bilim va kasb-hunarlarini egallagan, mustahkam hayotiy pozitsiyaga ega, chinakam vatanparvar insonlar sifatida tarbiyalash biz uchun dolzarb ahamiyatga ega bo‘lgan masala hisoblanadi-deya ta’kidlagan edi mamlakatimiz prezidenti Sh.M.Mirziyoyev.

Yangi O‘zbekistonning 2022-2026-yillarga mo‘ljallangan taraqqiyot strategiyasida umumta’lim maktablari kasb o‘rganish istagidagi bitiruvchilarining davlat tomonidan kamida bir kasbni egallashiga ko‘maklashuvchi tizimni joriy etish vazifasi belgilangan. Ana shu topshiriq ijrosini ta’minlash maqsadida ko‘rilayotgan chora-tadbirlar o‘quvchilarning muayyan kasb o‘rganib, maxsus malakaga ega, raqobatbardosh kadr bo‘lib yetishishiga xizmat qiladi. Zero, iqtisodiyot barqarorligi, barcha sohalarda rivojlangan davlatlar bilan bellasha olish ham mehnat bozoridagi kadrlarning salohiyatiga bog‘liq. Shu jihatlarni inobatga olgan holda muxtaram Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev Miromonovich 2020-yilning 6-noyabridagi “O‘zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta’lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi PF-6108 son farmonida ham “Umumta’lim muassasalari bitiruvchilari o‘z iqtidori va qiziqishlariga mos kasblarni tanlashi, mehnat bozorida munosib o‘rin topishi, kasbiy muvafaqiyatga erishishi uchun “kasbga yo‘naltirish tizimi” joriy etilishi belgilangan. Mazkur tizim doirasida 7-sinfdan boshlab turli interaktiv so‘rovnomalar o‘tkazish “kasblar olamiga sayohat” mavzularida maxsus kurslar olib borish, 8-sinf o‘quvchilari o‘rtasida “Mening kelajakdagi kasbim” mavzusida seminar-treninglar o‘tkazish, 9-sinf o‘quvchilarining kasbiy moyilligi bo‘yicha o‘tkazilgan tashxis natijalariga asosan kelgusida aniq ishchi

kasblar bo‘yicha kasb-hunar maktablarida ta’lim olishi mumkin bo‘lgan o‘quvchilar o‘rtasida kasbga yo‘naltirish ishlarini olib borish kabi vazifalar belgilab qo‘yilgan.

2022-yilning 11-maydagi PF-134 son Farmoni bilan tasdiqlangan 2022-2026-yillarda maktab ta’limini rivojlantirish bo‘yicha milliy dasturi, Vazirlar Mahkamasining “Umumiy o‘rta ta’lim muassasalarining 10-11 sinf o‘quvchilarini kasb-hunarga tayyorlash chora tadbirlari to‘g‘risida” gi 792-son qarorlari, maktabgacha va maktab ta’limi Vazirining 2023-yil 14-avgustagi 238-son qarorlarida umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida o‘quvchilar o‘z iqtidori va qiziqishlariga mos kasbni tanlab olishi, mehnat bozorida munosib o‘rin topishi,kasbiy faoliyatda muvaffaqiyatga erishishi uchun “Kasbga yo‘naltirish tizimi” joriy etish,o‘quvchilarni zamonaviy kasblar va IT sohasiga yo‘naltirish, ularni bilimlarini oshirish ishlarini samarali tashkil etish, o‘quvchilarni ikkita xorijiy til va bitta kasb-hunarga o‘rgatish amaliyotlarini yo‘lga qo‘yish, ularni professional ta’lim muassasalariga jalb etish bo‘yicha targ‘ibot ishlarini olib borish kabi vazifalar belgilangan bo‘lib, bu orqali o‘quvchilarning qiziqish va qobilyatlaridan kelib chiqib kelajakda ularning tanlovini davom ettirishlari yoki egallagan kasblari bo‘yicha mehnat faoliyati bilan shug‘ullanishlariga shart-sharoitlar yaratish ko‘zda tutilgan. Yurtimizda amalga oshirilayotgan ushbu islohatlardan bilishimiz mumkinki, zamonaviy bilim olish hamda mehnat bozorida talab yuqori bo‘lgan kasb-hunar egallah istagida bo‘lgan o‘quvchi-yoshlarning ta’lim olishi uchun keng imkoniyatlar yaratilgan.

Umumta’lim muassasalarida ham o‘quvchilarni kasbga yo‘naltirish, ularga turli zamonaviy kasblar haqida tushunchalar berish borasida ko‘plab ishlar olib borilmoqda. Respublika Tashxis Markazi tomonidan ishlab chiqilgan rejalar asosida muassasalarda har bir oy ma’lum bir kasblar oyligiga bag‘ishlanadi. Masalan oktyabr oyi-maishiy xizmat ko‘rsatish kasblari oyligi, noyabr-ishlab chiqarish sohalari kasblari oyligi, may oyi-radoitexnika va elektrotexnika kasblari oyligi, aprel oyi-fan va ta’lim sohasiga oid kasblar va shunga o‘xhash o‘quv yilining har bir oyida o‘quvchilarga ma’lum bir sohaga oid kasblar haqida tushunchalar berib boriladi, turli sayohat va ekskursiyalar, foto lavhalar, devoriy gazaetalar, insholar tanlovlari, trening mashg‘ulotlari tashkil etilib ushbu sohalar haqida bilim ko‘nikmalar shakillantirib borilmoqda. Bundan tashqari o‘quvchi-yoshlarni kasb-hunarga qiziqishlarini rivojlantirish, erkin fikrga va taassurotlarga ega bo‘lishlari uchun, yana bir samarali usullardan biri o‘z sohasida yuksak natijalarga erishib kelayotgan turli kasb egalari bilan jonli muloqotlar tashkil etilib, ular o‘z hayotiy tajribalari bilan, bosib o‘tgan yo‘llari, kerak bo‘lsa yo‘l qo‘ygan xatolari, sarflangan vaqt va xarajat hamda erishgan yutuqlari haqida bir-birlari bilan fikr almashish imkoniyatiga ega bo‘lishlari uchun davra suhbatlari tashkil etib kelinmoqda.

Aslini olganda jamiyat uchun keraksiz kasbning o‘zi yo‘q, Faqatgina inson tanlagan kasbiga sidqidildan, ma’suliyat bilan yondashib, yuqori darajada bilim,

malaka, ko'nikmalarga ega bo'lsa va o'z kasbini chinakamiga sevsagina yuqori natijalarga erishishi hamda o'z kasbining obro'sini oshirishi mumkin deb o'ylaymiz. Inson to'g'ri tanlangan kasbi orqali o'z oilasi bilan birga jamiyatga ham juda katta naf keltirishi aniq qonuniyatdir. Xulosa qiladigan bo'lsak, mehnat bozorining rivojlanishi tendensiyalarini inobatga olgan holda, aholining keng qatlamlarini talab yuqori bo'lgan kasblarga o'qitish va malakali kadrlarni tayyorlashning sifat jihatidan yangi tizimini joriy etish hamda mehnat resurslari balansini shakllantirish tartibini takomillashtirish, ayniqsa, mehnat bozoriga ilk bor kirib kelayotgan yoshlar bandligini ta'minlash hamda tadbirkorlikka jalb etish bo'yicha mehnat bozorining aniq talabidan kelib chiqib, kasbhunarga o'qitish davlat buyurtmasini hududiy investitsiya dasturlari asosida yaratilayotgan ish o'rinalarini inobatga olgan holda shakllantirish mehnat bozorida 2030-yilgacha mavjud yangi paydo bo'ladigan kasblar ro'yxatini shakllantirish yoshlar bandligi samaradorligini oshirish uchun iqtisodiy rag'batlardan, jumladan, yoshlarni ishga joylashtirish va qabul qilish, ularni kasbga o'qitish, malakasini oshirish hamda qayta tayyorlash bo'yicha xizmatlarini taqdim qilishdan korxonalarning manfaatdorligini oshiradigan soliq imtiyozlaridan ham foydalanish, yoshlarni ishga qabul qilish uchun qo'shimcha kvotalar ajratish lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Sh.M.Mirziyoyev "Buyuk kelajagimizni mard va olivjanob xalqimiz bilan birga quramiz" Toshkent "O'zbekiston" 2017. 136 b
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning O'zbekiston Oliy Majlisiga Murojaatnomasi. Toshkent 2022 yil,20 dekabr
3. "Kasb psixologiyasi" F.R.Abduraxmonov, Z.E.Abduraxmonova Toshkent 2018
4. "Экономика и сотциум" № -1 (92)-2.2022. Baxromova M.M
5. Sh.M.Mirziyoyev "Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi".-Toshkent: "O'zbekiston" nashriyoti, 2021
6. O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 20-oktabrdagi " Axoli bandligi to 'g 'risida"gi 642-sonli Qonuni,
7. O'zbekiston Respublikasining 2022-yil 28-oktabrdagi "Mehnat kodeksini tasdiqlash to'g'risida"gi 642-sonli Qonuni,
8. LEX.UZ.